

Adolat

Hikoya

-Bu dunyoda adolat yo‘q! – norozi ohangda chiyillabdi mo‘jiza tufayligina latchaning o‘tkir panjalaridan zo‘rg‘a qutulib qolgan sichqoncha.

-Yolg‘onga chidamay ko‘r-chi! – jahl bilan qichqirib yuboribdi mushukdan qo‘rqib, kavagiga yashirinib olgan latcha.

-Bu taqdirdan qochib bo‘lmaydi! – miyovladi mushuk va baland devorga chiqib oldida, xavotirli ko‘zlari n bilan hovlida aylanib yurgan ko‘ppakka qarab-qarab qo‘ydi.

-Do‘stlarim, tinchlaning! – dedi donishmand boyqush dehqon hovlisining to‘rida o‘tirgan ko‘yi.

- Nahotki hayot faqat n olishdan iborat bo‘lsa? Bu hayotda har kimning o‘z ulushi va hissasi bor. Adolat faqat bir kishiga taalluqli va bog‘liq bo‘lmaydi.

Unning so‘zlarini tinglab, sichqoncha uyasidan boshini ko‘tarib, tahqariga qaradi, latcha kavagidan burnini chiqardi, mushuk devorga yaxshiroq o‘tirib oldi, ko‘ppakka esa orqa oyoqlariga cho‘zilib yotdi.

-Adolat, - davom etdi boyqush, - tabiatning oily qonuni. Uyerda yashayotgan jamiki jonzodlar o‘rtasida odilona kelishuv muhitini yaratadi. Bu dono qonun bor ekanki, hayvonlar, qushlar, baliqlar va hatto hasharotlar bir-biri bilan kelishib yashaydilar. Qaranglar, asalarilar qanday inoq yashashadi, birgalikda mehnat qilishadi.

Boyqush haq edi. Asalarilar oilasida ona asalari boshchilik qiladi. U ishni hammaga birday bo‘lib beradi, ularni nazorat qiladi. Har bir ari qo‘lidan keladigan ishni bajaradi. Bir guruh arilar guldin sharbat teradilar, boshqalari – mumli asal yig‘adilar, birlari arixonani qo‘riqlaydilar, arixonaga yaqinlashgan xira va tulki arilarni quvadilar. Sanitar arilar tozalikni saqlaydilar, ona arining shaxsiy qo‘riqchilari undan bir zum ham ayrilmaydilar. Ona asalari qarib qolsa, eng kuchli asalari uni avaylabgina ko‘tarib, shifokor asalarilar oldiga olib borishadi. Ular uni mehr bilan davolashadi. Biron-bir asalari o‘ziga yuklatilgan vazifani uddalamasa yo undan bosh tortsa, uni muqarrar jazo kutadi.

Tabiatda hamma narsa aql bilan joy-joyiga qo‘yilgan. Shuning uchun ham har kim o‘z ishi bilan shug‘ullanishi lozim. Har kim qo‘lidan kelgan ishni qilsagina, hamma joyda adolat barqaror topadi. Hayotning eng oily haqiqati mana shu donolikda mujassam.

Leonardo da Vinchi.
Zumrad tomchilari kitobi.